O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Rektor ________ Sh.Samariddinov
2022-yil 20 -avgust

# NAVOIYSHUNOSLIK

fanining o'quv dasturi (sillabusi 3-kurs)

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100 000 – Ta'lim |
| **Ta'lim sohasi:** | 110 000 – Ta'lim |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti (2-mutaxassislik) |

**Toshkent – 2022**

| Fan/modul kodi 400.1NSH6M | | Fan/modul turi majburiy | Ta'lim tili o'zbek | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023 | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 6 | Navoiy hayoti va ijodiy merosi | 6 | 6 | 24 | 10 | 14 | 0 | 0 | 156 | 180 |
| | **Jami:** | **6** | **6** | **24** | 10 | **14** | **0** | **0** | 156 | 180 |

**1. FANNING MAZMUNI**

Fanni o'qitishdan maqsad – Alisher Navoiyning boy adabiy va ilmiy merosi yuzasidan ta'lim berish orqali talaba yoshlarda yuksak ma'naviyat va ma'rifatni tarbiyalash. Navoiy ijodini o'rganish o'zbek mumtoz adabiyoti va milliy ma'naviyatimiz shakllanishi hamda takomili qonuniyatlarini anglash yo'lida ochqich vazifasini o'taydi. Yoshlarda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga ko'maklashish ushbu o'quv fanining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

**2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR**

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiayalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

Talaba:

- Navoiyshunoslik fanining obyekti va predmeti;
- Navoiyshunoslik fanining ta'lim tizimida tutgan o'rni;
- Navoiyshunoslik fani bo'yicha yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarning xususiyatlari;

– o'zbek tili va adabiyot o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyatining nazariy-metodik asoslari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodikasi, adabiyot o'qitishda darslarni kompyuterlashtirish, masofaviy ta'lim va uning xususiyatlari, adabiyot darslarida internetdan foydalanish yo'llari va madaniyati, ma'lumotlar omboridan samarali foydalanish yuzasidan ***bilimga;***

– umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi o'zbek adabiyoti fanlari dastur va darsliklari mazmuni;

– o'zbek adabiyotini o'qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslarini, adabiyot o'qitish metodlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini bilishi;

– badiiy asarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra tahlil qila olish yuzasidan ***ko'nikmaga;***

– ta'lim tizimida fanning mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan metod va usullar asosida ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-metodik asoslari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining pedagogik faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarini, kasbga yo'naltirib muammoli o'qitish yuzasidan ***malakaga;***

– mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini, badiiy asarni tahlil qilish va baholash mezonlarini, Blum taksonomiyasi asosida fanning o'qitish bosqichlarini belgilay olishi, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini, dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni qo'llay bilish;

– fan dasturi, ishchi dasturi asosida kalendar tematik rejani tayyorlash, darsliklar ustida ishlash, malakaviy amaliyotlarni tashkil etish va rejalashtirish;

– ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni hamda zamon talabiga mos darslarni tashkil qila olish ***kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak.***

**3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR**

Ushbu fan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi eng muhim ma'lumotlar, uning asarlari poetikasi, shoir lirikasi, xususan, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibiga kiruvchi janrlarni, dostonlari va nasriy asarlarini o'qitish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan.

"Navoiyshunoslik" fanini to'liq o'zlashtirish bakalavriat bosqichi talabalarining bilimlarini mustahkamlash, badiiy did va adabiy idrokni o'stirish hamda ularda tadqiqotchilik malakasini shakllantirish uchun zamin hozirlaydi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun "Navoiyshunoslik" fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga doir muammolarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. ***Talaba:***

– Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, hayot yo'li, tafakkur dahosi, o'zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o'zbek davlatchiligi va ma'naviyati tarixida tutgan o'rni haqida tavsiyaga ega bo'lishi;

– Navoiy asarlarining o‘rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, adabiy merosining vazn xususiyatlari, janrlar poetikasi, xamsachilik an’anasi, tatabbu, nazira, tavr, muxtara g‘azallarning o‘ziga xos jihatlari, Navoiy ijodida qo‘llanilgan qofiya unsurlari, badiiy san’atlarning hosil bo‘lish yo‘llari, majoz tariqida yozilgan she’rlarda qo‘llanilgan ilmiy, diniy-asotiriy va tasavvufiy istilohlarni sharhlash, badiiy nasr stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, Navoiy asarlari tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarining o‘ziga xos jihatlari, ma’no qatlamlari, o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri bilan bog‘liq masalalarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi*** talab etiladi.

#### 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

### TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimini baholash tartibi O‘zbekiton Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O‘tilgan mavzular asosida **og‘zaki yoki test** shaklda o‘tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o‘tilgan mavzular bo‘yicha **og‘zaki yoki test** shaklda o‘tkaziladi.

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o‘tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o‘tkazilishi muddatlari muyyan o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a’lo) baho;**

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

#### 5. O‘QUV MASHG‘ULOTLARI VA MUSTAQIL TA’LIM QISMI

**Ma’ruza mashg‘ulotlari**

**VI semestr**

| № | Ma’ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so‘zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Alisher Navoiyning lirik merosi. Devonlari | Navoiy ijod etgan lirik janrlar va uning 9 ta devoni haqida ma’lumot. | 2 |
| 2 | Xamsanavislik an’anasi va Alisher Navoiy ‘‘Xamsa’’si. | Sharq adabiyotidagi xamsachilik maktabi va unda Navoiy tutgan o‘rin. “Hayrat ul-abror” dostoni. “Farhod va Shirin” dostonining timsollar olami. “Layli va Majnun” dostonida muallif badiiy niyatining ifodalanishi. “Sab’ai sayyor” dostonining tarkibiy tuzilishi, hikoyatlar tahlili. | 2 |
| 3 | Alisher Navoiyning ilmiy merosi. | *Adabiyotshunoslik asarlari.* “Mufradot” – muammo janriga bag‘ishlangan asar. “Majolis un-nafois” - turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. “Mezon ul-avzon”da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi. Alisher Navoiy – tilshunos. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da ikki til mubohasasi. | 2 |
| 4 | Ma’rifiy-ta’limiy, diniy va tasavvufiy asarlari | “Arba’in” va hadislarni she’rga solish an’anasi. “Nazm ul-javohir” asarida Hazrat Ali hikmatlariga munosabat. Asardagi ruboiylar talqini. “Siroj ul-muslimin”da ta’limiy masalalar. “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida tasavvuf masalalari. “Vaqfiya” asarida Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq masalalar. “Munojot”da tavba-tazarru va Haqqa bo‘lgan ishq ohanglari. | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | *Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar.* "Sab'at abhur" va "Risolai tir andoxtan" asarlari. | |
| 5 | Alisher Navoiyning nasriy asarlari. | Asarni tarixiy-badiiy xususiyatlari. "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub", "Xamasat ul-mutahhayrin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlari. | 2 |
| | | **Jami:** | **10 s.** |

## 2. Seminar mashg'ulotlar

| № | Seminar mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Navoyi hayoti va ijodi zamondoshlari xotirasida (Xondamir asarlari misolida) | Navoiyshunoslik shoir davridayoq boshlanganligi tushuntiriladi. | 2 |
| 2 | "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining tarkibiy tuzilishi | Kulliyotning yaratilish tarixi. Asarlarning 4 devonga taqsimoti. | 2 |
| 3 | "Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlar tahlili. "Farhod va Shirin" dostonida yetakchi obrazlar tizimi. "Farhod va Shirin" dostonida yetakchi obrazlar tizimi. | Maqolat va hikoyatlarning falsafiy-badiiy mohiyati ochiladi. Doston obrazlarining dunyoviy va ilohiy talqinlari qiyosiy talqini. | 2 |
| 4 | "Layli va Majnun"ning tasavvufiy talqini. "Sab'ayi sayyor" dostonida "yettilik"lar tahlili | Majoz va haqiqat ifodasi. Layli – ilohiy ishq mazhari sifatida. Etti iqlim hukmdori, etti qasr, etti malika, etti sayyoh sarguzashti. | 2 |
| 5 | "Saddi Iskandariy" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. "Lison ut-tayr"ning tasaavvufiy talqini | *"Saddi Iskandariy"* – falsafiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asar. Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibiy tuzilishi. Dostonda adolat timsoli. | 2 |
| 6 | Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid asarlari | Shoirning filologik ilmiy tafakkuri mahsullari yoritilishi. | 2 |
| 7 | Ma'rifiy-ta'limiy, axloqiy asarlari | *Tarixiy asarlari.* "Tarixi muluki ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida. *Yodnomalar* – memuar janrining yuksak namunasi sifatida. "Xamsat ul-mutahayyirin" asarining mundarijasi. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari. "Munshaot" – turkiy epistolyar janrining nodir namunasi. *«Mahbub ul-qulub» asari.* Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari. | 2 |
| | | **Jami:** | **14 s.** |

### 3. Mustaqil ta'lim ishlari

Talabaga mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.
- O'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalar tayyorlash;
- Badiiy asarlarni o'qish va mutolaa qilish;
- Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- Masofaviy (distansion) ta'lim.

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | O'quv mashg'ulot turi nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida Navoyi shaxsiyati va ijtimoiy faoliyatiga doir qarashlar. | ma'ruza | "Makorim ul-axloq" asarini mustaqil mutolaa etish. | 10 |
| 2 | Navoyi g'azallarining mavzu bo'yicha har bir turiga g'azal yodlash va ularni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish. | seminar | "Navoiy g'azaliyoti talqinlari" kitobi ustida ishlash. | 4 |
| 3 | "Hayrat ul-abror" dostonining boblar bo'yicha tavsifi. | amaliy | Dostonni to'liq mustaqil o'rganish. | 4 |
| 4 | "Farhod va Shirin" dostonining boblar bo'yicha tavsifi. | amaliy | Boblarni mustaqil mutolaa etish | 8 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5 | "Layli va Majnun" dostonining boblar bo'yicha tavsifi. | amaliy | Boblarni mustaqil mutolaa etish | 8 |
| 6 | "Sab'ai sayyor" dostonining boblar bo'yicha tavsifi. | amaliy | Boblarni mustaqil mutolaa etish | 8 |
| 7 | "Saddi Iskandariy" dostonining boblar bo'yicha tavsifi. | amaliy | Boblarni mustaqil mutolaa etish | 4 |
| 8 | "Lison ut-tayr" dostonining boblar bo'yicha tavsifi. | amaliy | Boblarni mustaqil mutolaa etish | 4 |
| 9 | "Munshaot" asaridagi maktublar tasnifi. | amaliy | Maktublarni o'qish | 4 |
| 10 | "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida tilshunoslik masalalari. | amaliy | Asar matnini o'qib o'rganish | 4 |
| 11 | "Majolis un-nafoyis"dagi 2-3-majlislar. | amaliy | Majlislar mutolaasi | 4 |
| 12 | Navoyining 10 ta g'azalini g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish | amaliy | G'azallarni mustaqil tahlil etish | 10 |
| 13 | "Xazoyin ul-maoniy"dagi janrlarni "Devoni Foniy"dagi janrlar bilan qiyoslash | amaliy | Ikkala manbani qiyosiy tahlil asosida o'rganish | 4 |
| 14 | Navoyi lirikasidagi ma'naviy san'atlarni o'rganish | amaliy | Asarlardagi ma'naviy san'atlarni aniqlash | 8 |
| 15 | Navoyi lirikasidagi lafziy san'atlarni o'rganish | amaliy | Asarlardagi lafziy san'atlarni o'rganish | 8 |
| 16 | Navoyi lirikasidagi mushtarak san'atlarni o'rganish | amaliy | Asarlardagi mushtarak san'atlarni aniqlash | 4 |
| 17 | "Hayrat ul-abror"dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish. | amaliy | 10 baytni tanlab, ritm xususiyatini o'rganish | 4 |
| 18 | "Farhod va Shirin"dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish. | amaliy | 10 baytni tanlab, ritm xususiyatlarini bilish | 4 |
| 19 | "Layli va Majnun" dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish | amaliy | 10 baytni tanlab, ritm ustida ishlash | 4 |
| 20 | "Sab'ayi sayyor" dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish. | amaliy | 10 baytni tanlab, ritm xususiyatini o'rganish | 4 |
| 21 | "Saddi Iskandariy"dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish. | amaliy | 10 baytni tanlab, ritm xususiyatini yoritish | 4 |
| 22 | Navoyi "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti bilan to'liq tanishib chiqish. | amaliy | "Xazoyin ul-maoniy" va "Devoni Foniy" matlari ustida ishlash, g'azal yodlash mashqini bajarish | 10 |
| 23 | Hamd, na't, orifona, oshiqona, rindona mavzudagi g'azallaridan yod olish va g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish. | amaliy | Mazkur lirik janrlar ustida mustaqil ishlash | 10 |
| 24 | Navoyining qit'a, ruboiy, fard va muxammaslaridan namunalar yodlash va sharhlab kelish. | amaliy | Mazkur lirik janrlar ustida mustaqil ishlash | 8 |
| 25 | "Devoni Foniy" bilan to'liq tanishib chiqish. Hamd, na't, orifona, oshiqona, rindona mavzudagi g'azallaridan yod olish va g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish. | amaliy | Mazkur lirik janrlar ustida mustaqil ishlash | 10 |
| 26 | "Devoni Foniy"dagi soqiynomalar tahlili. | amaliy | Mazkur lirik janrlar ustida mustaqil ishlash | 2 |
| 27 | Navoyining qit'a, ruboiy, fard va muxammaslaridan namunalar yodlash va sharhlab kelish. | amaliy | Mazkur lirik janrlar ustida mustaqil ishlash | 2 |
| | | | **Jami:** | **164 s.** |

## 7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

### Asosiy adabiyotlar:


1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2018.
2. Yusupova D. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). O'quv qo'llanma. – T.: TAMADDUN, 2016.
3. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011.
4. Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1983.
5. Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma'naviyat, 2005
6. Komilov N. Ma'nolar olamiga safar. – T.:TAMADDUN, 2016.

7. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jildlar /Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.
8. Navoiy g'azaliyoti talqinlari. T., O'zbekiston, 2016.
9. Jumaxo'ja N. "Qaro ko'zum..." g'azali tadqiqi. T., Muharrir, 2021.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017 yil, 8 fevral).
3. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi 2017 yil, 21 aprel).
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 1-20 jildlar. –T.: Fan, 1987-2003.
7. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-10 jildlar. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2011.
8. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr – O'zbekiston NMIU, 2009.
9. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
10. N.Jumaxo'ja. Satrlar silsilasidagi sehr. – T.: O'qituvchi nashriyoti, 1995.
11. Umarova S. Суйима Ганиева илмий-адабий мероси: тадқиқот усуллари ва мезонлари. – T.: "BOOKMANY PRINT", 2022.

### Elektron ta'lim resurslari:

1. www.alishernavoiy.uz
2. www.ziyo-net.uz
3. www.literature.uz
4. www.kutubxona.uz

### 8. ISHCHI O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

Ishchi o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022 yil "30" "09" dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

**"O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi mudiri, f.f.d., professor**
N. Jabborov ________________ *(imzo)*

**Tuzuvchi:**
S. Umarova ________________ *(imzo)*
ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

O.Tojiboyeva ________________ *(imzo)*
ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Taqrizchilar:**
To'xliyev B. ________________ *(imzo)*
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori;
Jo'raqulov U. ________________ *(imzo)*
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori.